

MUNGLI KO'ZLAR ASARIDA BOLANING ICHKI KECHINMALARI VA ULARNING BADIY IFODASI

Ismoiljonova Nilufar Qahramonjon qizi

Namangan davlat universiteti magistri

nilufarxonobidovna@gmail.com

+998932464841

Annotatsiya: Mazkur maqolada hozirgi o'zbek nasrida bola psixologizmining badiiy talqini o'rganiladi. Maqolada Xudoyberi To'xtaboyevning „Mungli ko'zlar“ nomli asarida bola psixologiyasining badiiy xususiyatlari va bola ruiyati masalalari o'rganiladi. Ushbu asarda bolalar dunyoqarashi, ruhiy kechinmalari, ichki ziddiyatlari va ijtimoiy muhit bilan munosabatlari o'ziga xos badiiy uslubda yoritilgan.

Аннотация: В данной статье рассматривается художественная интерпретация детской психологии в современной узбекской прозе. В статье рассматриваются художественные особенности детской психологии и вопросы детского поведения в произведении Худойбери Тохтабаева «Мунгли козлар». В этом произведении в уникальном художественном стиле отражены детское мировосприятие, душевные переживания, внутренние конфликты и отношения с социальной средой.

Annotation: This article examines the artistic interpretation of child psychology in modern Uzbek prose. The article examines the artistic features of child psychology and issues of child behavior in Khudoyberi Tokhtaboyev's work entitled "Mungli kozlar". In this work, children's worldview, mental experiences, internal conflicts and relations with the social environment are covered in a unique artistic style.

Ota-ona – yangi insonni kamol toptirish mas'ulligini chuqur his qiluvchi, “farzand” deb atalmish Olloh mukofotiga muyassar buyuk hislar og'ushidagi insonlar hamkorligidir. Ota-onaga farzandining baxtidan bo'lak ne'mat kerak emas. Agar mana shu tushunchaga zarracha putur yetadigan bo'lsa, nafaqat kelajak avlod, hatto ota-onaning hayoti ham izdan chiqishi tabiiydir. Xuddi shuningdek, farzand ham eng baxtiyor damlarida ota-ona yonida bo'lgisi, baxtini ular bilan baham ko'rgisi keladi. Ular ota-ona diydori, ota-ona mehr-muhabbatini har narsadan aziz biladilar. Sevimli va hassos yozuvchimiz Xudoyberdi To'xtaboyevning “Mungli ko'zlar” asarida xuddi mana shu mavzu ilgari surilganligi bilan afzallik kasb etadi. Shu sababli ham asar yozilganiga oradan ancha fursat o'tgan bo'lsa-da, u badiiy qimmatini hamon yo'qotmagan. Bugungi kunda ham har bir o'quvchi mazkur asarni har gal qo'liga o'zgacha mehr va iztirob bilan oladi.

"Mungli ko'zlar" romanining qahramonlari o'ziga xos yangicha ma'no kasb etadi va shu jihati bilan ijodkorning bundan avval yaratgan asar qahramonlariga sira o'xshamaydi. Romandagi bolalar shaharda ulg'ayib, hech qanday muhtojlik ko'rmagan arzanda bolalar bo'lib, yozuvchi unda bir oilaning tanazzulini ko'rsatib beradi. Moliyaviy yutuqlarga ega bo'lgan ota-onalarining aytgan gapi barcha yerga o'tar, shu sababdan ham bolalar ruhiyatida kibr - dimog' yaqqol ko'zga tashlanadi. Asar qahramoni Zafarda hatto o'zidan yaxshi o'qiydigan sinfdoshlarini ko'rolmaslik va g'arazli munosabatlarga egaligini ko'rish mumkin. Dastlab bolalarning ongi oq qog'ozdek bo'ladi. Oila kattalari unda nimani chizsa bola ruhiyatida shu narsa bo'y ko'rsatadi. Har bir oilada bo'lganidek, farzandlarning tarbiyasida ota-onalari Said va Yoqutxonning ta'siri katta. Bolalar o'zlariga ota-onalari ko'proq e'tibor berishlarini xohlashardi, ulardan haqiqiy samimiylik kutishardi. Ammo ota-ona farzand oldidagi burchlari faqat ularni yedirish va kiydirishdan iborat deb bilar edilar. Uning ota-onasi mol-mulkka o'ch bo'lib pul, oltin yig'ishardi. Muhimi, ular boyiganlari sayin o'zlarini boshqara olmay qoladilar. Zafar ota-onasi bilan faxrlanar, qalbi g'ururga to'la bo'lib ularga o'xshashni juda istardi. Oilaning to'ng'ich farzandi Akbar esa tug'ma nogiron bo'lsa-da, ularning bu ishlari uzoqqa bormasligini ich-ichidan his qilardi. Shuning uchun ham qaysarlik qilib ovqat yemas, oyisi olib bergan kiyimlarni ham kiymas edi. Akbar qalbi butun va sergak bola edi. U to'g'riso'zlikni, halollikni muallimi Atoulo Isayevichdan o'rgangan edi. Akbar shu sababli oiladidagi manmanlik ustun bo'lgan muhitni deyarli qabul qilolmasdi. Chunki Akbar halol mehnat mevasini ko'rish gashtini ustozidan o'rgangan edi. Ko'pchilik farzandlar qatori Akbar ham Zafar ham ota-onalarini birdek yaxshi ko'rishar, hurmatlarini joyiga qo'yishardi. Faqat Akbargina otasining poraxo'r, onasining esa chayqovchi ekanligini sira ham hazm qilolmasdi. Akbar qachondir bu ishlarning oqibati yaxshi bo'lmasligidan qo'rqib yashaydi.

"Mungli ko'zlar" asari ham zamondosh davr voqealarini hikoya qiladi. Asarni o'qir ekanmiz, ko'zyoshi to'klamslikni, jamiyatdagi illatlardan nafratlanmaslikni iloji yo'q. Asarda halol mehnat qilaman, oliy o'quv yurtiga kiraman deb niyat qilib kelgan insonni jamiyat ildiziga bolta urayotgan poraxo'r shaxslar uni ham o'zlariga o'xshatishadi. Asarda Said Karimov shaharga o'qiyman deb kelgandi ammo poraxo'rlik jinoyat bunga yo'l qo'ymadi. Oxir-oqibat, o'zi ham ayoli ham jinoyat yo'lga kirishdi. Ular pulga oltiga ruju qo'yishdi. Farzandlarini ham shu ruhda tarbiyalay boshlashdi. Hattoki maktabda o'qiydigan o'g'lini bahosini pora bilan to'g'rilab berishadi. Ularning jinoyatlari oshkor bo'lib qamalanganidan so'ng oila boshiga qator kulfatlar kela boshlaydi. Otasi uzoq muddaga qamaladi, onasi esa bevaqt vafot etadi. Bolalarning taqdiri esa bundan ko'ra achinarliroq. Asar 16 yoshli Zafar tilidan hikoya qilinadi. Unga ota-onasi bolaligidan pul hamma narsani hal qila oladi deb o'rgatib kelishgan. Ota-ona boshiga bunday falokat yetganidan so'ng 3-o'g'il Zafar hali maktab o'quvchisi bo'lishiga qaramay mol-davlat ongiga singdirib

yuborilgani uchun, “hadya” qilingan volgani o‘g‘iraydi va avtohalokatda vafot etadi. Kichkina qizi Nigora esa ota-onasidan ayrilib, bu iztirobga chidolmay kasallikka chalinadi. Shuncha kulfatdan so‘ng Zafar ruhiy iztirobga tushib asab kasaliga uchraydi. Akasi esa bu ishlarda o‘zini ayblab joniga qasd qiladi. Bir oilaning shunday vayron bo‘lishiga urush emas jamiyatdagi illat, poraxo‘rlik sabab. Mungli kuzlariga qarash og‘ir... Go‘daklar ko‘zidagi mung ko‘p jihatdan jamiyatning holati va kayfiyatiga bog‘liq. Uyog‘ini surishtirsangiz, bolalarning ko‘zidagi mungga men ham toqat qilolmayman... Xo‘p xayr, meni tinch qo‘ying endi.¹ O‘sha paytda butun ruhimni o‘ch, molu dunyoga bo‘lgan hirs — ehtiros qamrab oigan, bu tuyg‘u xavfsirash deb ataladigan boshqa bir tuyg‘udan xiyla ustun edi. Shu ustunlikdan harakatlarim dadil, oyog‘im chaqqon, ishonchim komil edi. e‘tibor bering shu poraxo‘rlik sabab, mol-dunyoga o‘chlik Zufarni bevaqt o‘limiga, Zufarni esa jinoyat ko‘chasiga boshlaydi. U o‘ch olish uchun uylarga o‘t qo‘yadi. Ammo bu bilan uni jinniga chiqarib qo‘yishadi. Ammasinikiga borib halol mehnatni endi o‘rganayotgan bola to‘satdan tuhmat bilan qamaladi. Atoulo isayevich shunday deydi. O‘ bolam, o‘ynashmagin arbob bilan, arbob urar har bob bilan demaganmidim: arboblardir seni. Lekin, bolaginam, kimligini bilmay o‘zim ham dog‘da qoldim.² Asarda to‘liq ochiqqlanmagan bo‘lsa ham ammo ko‘rinib turibdiki, Zufarni usha tanish kimsalar tuhmat bilan qamatib yuboradilar. Zafar qamoqda turli taqdirdagi bolalarni uchratadi.

Sen o‘rtog‘im bo‘lsang ham baribir meni tushunmaysan. Meni noto‘g‘ri qamashdi. Tergovchi ham, sud ham gapimga quloq solmadi. To‘g‘ri, men o‘g‘riman, chakanasiman. Soat o‘g‘irlaganman, magnitafon olib qochganman, mushtlashganman, nega boshqalar soat taqqanda men taqmas ekanman, oyim farrosh bo‘lgani uchunmi? Ular jinsi shim, fin kurtkasini kiyib, kechqurunlari yapon magnitafonini qo‘yib, yallo qilib o‘ynashar ekanu men maktabga borib onamning o‘rniga pol yuvib, hovli supurib yuraverar ekanman-da. Yana tag‘in oyog‘imni yuvib qo‘y, yelkamni silab qo‘y deb ustimdan kulishganlari-chi... bu taqdir bir bolani o‘g‘riga aylantiradi. Payg‘ambarimiz Muhammad (s.a.v) aytganlaridek: “Har bir bola fitratda tug‘iladi, uni musulmon, yoki nasroniy bo‘lish ota-onasiga bog‘liq. Asarlardan ham ko‘rinib turibdiki, bola tarbiyasi uchun ota-onaning, jamiyatning o‘rni beqiyos. Bejizga xalqimiz: “Bir bolaga yetti mahalla ota –ona”,- deb aytishmagan.

Foyalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Xudoyberdi To‘xtaboyev, “Mungli ko‘zlar”, Toshkent «Yangi asr avlodi», 2010
2. Dilnoza Dilshod Qizi Sayfullayeva. Xudoyberdi To‘xtaboyevning “Mungli Ko‘zlar” asari haqida mungli satrlar. International Scientific Journal Volume

¹ Xudoyberdi To‘xtaboyev. Mungli ko‘zlar. Yangi asr avlodi. Toshkent.: 2010

² Xudoyberdi To‘xtaboyev. Mungli ko‘zlar. Yangi asr avlodi. Toshkent.: 2010

3. To'laboyeva R. O'zbek bolalar adabiyotida kattalar va bolalararo munosabatda bolalar harakterining yoritilishi
4. Ruxsora To'laboyeva. Xudoyberdi To'xtaboyev asarlarida psixologizm. diss. avtoreferat. Toshkent- 2019.